

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Buxoro davlat universiteti

<b>«KELISHILGAN»</b> Xorijiy tillar fakulteti, dekani <u>N.B. Ataboyev</u> « <u>    </u> » <u>    </u> 2024 y.	<b>«KELISHILGAN»</b> O'quv ishlari bo'yicha prorektor <u>R.G'. Jumaev</u> « <u>    </u> » <u>    </u> 2024 y.
---	--




60230200-Tarjima nazariyasi va amaliyoti nemis tili ta'lim yo'nalishi  
bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan  
Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon  
DASTURI



- 2.00. Ixtisoslik fanlari:**  
2.02. Yozma tarjima  
3.02. Tarjima nazariyasi  
2.04. Sinxron tarjima

Buxoro – 2024 yil

## ANNOTATSIYA

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi natijasida ona tilimiz va xorijiy tillarni o'rganishga e'tibor nihoyatda kuchaydi. Respublikamizda ta'lim tizimi xalqimizning boy milliy va ma'naviy xazinalariga hamda taraqqiy etgan boshqa mamlakatlar tajribalariga suyanan holda rivojlanib bormoqda. Ushbu dastur chet tili bo'yicha bo'lajak mutaxassislariga tilshunoslik fani taraqqiyoti jarayonida yaratilgan va fanda qo'llanib kelinayotgan "O'rganilayotgan til nazariy aspektlari"ni atroflicha yoritishga xizmat qiladi. Ushbu dastur oliy o'quv yurti bakalavr darajasida nemis tilini o'rganuvchi talabalar uchun tayyorlangan bo'lib, ularga nemis tilidan leksikologiya, nazariy fonetika, nazariy grammatika, o'rganilayotgan til tarixi, stilistika va matn tahlili kabi fanlardan tizimli bilim berish, lug'at tarkibi va leksik qatlam xususiyatlari to'g'risida chuqur ma'lumot yetkazishga mo'ljallangan. Dasturda fanning maqsad va vazifalari, talabalar bilimiga, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar shuningdek o'rganilayotgan til nazariy aspektlari fani dasturining asosiy nazariy qismi, baholash mezonlari, bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi savollari berilgan.

Tuzuvchilar:		Y.B. Ro'ziyev, Nemis filologiyasi kafedrasini mudiri
		D.H. Karimova, Nemis filologiyasi kafedrasini dotsenti, f.f.f.d (PhD)
		M.T. Babayev, Nemis filologiyasi kafedrasini o'qituvchisi

Taqrizchilar:		M.M. Maxmudova, Nemis filologiyasi kafedrasini dotsenti, f.f.f.d (PhD)
		D.Z. Hayotova, Nemis filologiyasi kafedrasini katta o'qituvchisi

Imtihon dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.  
2024 yil «30» 03 dagi 8 - sonli bayonnoma.

## KIRISH

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi 60230200 - *Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo'yicha)* yo'nalishi bitiruvchilarining "Yozma tarjima", "Tarjima nazariyasi" va "Sinxron tarjima" fanlari bo'yicha egallagan bilim va malakalarini baholash uchun tuzilgan.

Keltirilgan fanlar umumkasbiy va ixtisoslik fanlari blokiga kiritilgan bo'lib, bosqichma-bosqich 1,2,3,4-kurslarda o'qitiladi. Ushbu fanlar Tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, boshqa umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining nazariy va uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Dastur to'rtta umumkasbiy va ixtisoslik fanlari, jumladan Yozma tarjima, Tarjima nazariyasi va Sinxron tarjima fanlari namunaviy dasturlari asosida tuzilgan.

Ushbu dastur "Yozma tarjima", "Tarjima nazariyasi" va "Sinxron tarjima" fanlarining dasturlarida belgilangan talabalarga tarjima konsepsiyasi, tarjima konsepsiyasi haqida umumiy ma'lumot, tarjima nima, yozma tarjimaning qisqacha tarixi haqida ma'lumot, tarjima turlari, yozma va og'zaki tarjima hamda ular o'rtasidagi o'xshashlik va farq qiluvchi jihatlari, tarjima turlari, tarjima usullari, yozma tarjima va uning leksik-semantik xususiyatlari, tarjima ko'pqirrali fan sifatida, tarjimaning kognitiv jarayoni, tarjima usullari, yozma tarjima transformatsiyalari, yozma tarjimada leksik-semantik transformatsiyalar, yozma tarjimada leksik-semantik transformatsiyalar, yozma tarjima qilish usullarini, ona tilining xususiyatlarini va uslubiy jihatlari, so'z tanlashni va tarjimaning turli texnikasini tarjima jarayonida qo'llash, transkripsiya, transliteratsiya, kalka, matnlar va mavzular tarjimasida ikki tildagi so'z, birikma, frazeologik birikmalar, maqol va matallar kabi birliklarni to'g'ri va aniq tarjima qilish, tarjimoning "qalbaki do'stlari" va tarjimada ularning xususiyatlari, antonimik tarjima, antonimik tarjima tarjima jarayonida keng qo'llaniladigan kompleks leksik-grammatik almashtiruv, tasdiq grammatik konstruktsiya inkor grammatik konstruktsiyaga, yoki aksincha, inkor konstruktsiya tasdiq konstruktsiyaga almashtirilishi, asl matndagi biror so'z tarjima tilida uning antonimiga almashtirilishi, tarjimada tinish belgilarining ishlatilishi, yozma tarjimada turli (nuqta, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, qo'shtimoq, timoq, chiziqcha, tire, so'roq, undov va boshqa) tinish belgilarining ishlatilishi, vergulning qo'llanmaslik holatlari, tutuq belgisining qo'llanishi, imlo qoidalari, qo'sh unli va qo'sh undoshlarning qo'llanilishi, boshqa yo'llar bilan ko'pligi yasaladigan otlarning qo'llanilishi, yozma tarjimada lug'at bilan ishlash, yozma tarjimada lug'at bilan ishlash, yozma nutq lug'at tarkibi, internatsional, psevdointernatsional, ko'p ma'nol so'zlar, neologizmlar tarjimasini, atamalarining ekvivalentini aniqlash, so'z birikmalar frazeologik birikmalar tarjimasini, bunda kundalik hayotini bildiruvchi, leksik terminlardan tashkil topgan qisqa epizodik lavhalar, kichik hajmdagi uchrashuv

so'zlashuv va shuningdek, qisqa hajmdagi ma'muriy va iqtisodiy matnlar tarjimai, yozma tarjimada realiyalar, frazeologik birliklari ustida ishlash, yozma tarjimaga xos so'zlar, realiyalar, frazeologik birliklar, maqol va matallarning chet tiliga o'girishdagi qiyinchiliklarini transformatsiyalar yordamida bartaraf etish, maqol va matallarning tarjima qilish usullari, maqol va matallarning chet tiliga o'girishdagi qiyinchiliklarini transformatsiyalar yordamida bartaraf etish, yozma tarjimaning grammatik hususiyatlari, yozma nutq lug'at tarkibi, grammatik qurilish va ularning o'rganilayotgan xorijiy va ona tilidagi o'ziga xos xususiyatlari, yozma tarjimada qo'llaniladigan gaplar tuzilishi, punktuatsiya, matnning asl mazmuni ona tilida berilishi, grammatik qurilish va ularning o'rganilayotgan xorijiy va ona tilidagi o'ziga xos xususiyatlari kabi vazifalarni qamrab olgan bo'lib, bakalavriat talabalarining to'rt yil davomida yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda olgan bilimlarini attestatsiyadan o'tkazish maqsadida tuzilgan.

Mazkur dastur Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan.

**“Yozma tarjima”, “Tarjima nazariyasi” va “Sinxron tarjima” bo'yicha o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma ishlarini BAHOLASH MEZONLARI**

“Yozma tarjima”, “Tarjima nazariyasi” va “Sinxron tarjima” va umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan bakalavriat yo'nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma usulda o'tkaziladi.

Har bir variant 3 savoldan iborat, bunda har bir ixtisoslik fanidan bittadan savol olinadi. Variantdagi 3 ta savolning ikkitasi nazariy mazmunda bo'lib, ulardan olish mumkin bo'lgan maksimal ball 25 ga teng, “Sinxron tarjima” fanidan esa talaba amaliy tarjima ko'nikmasi baholanadi va maksimal 50 ball, jami 100 ball to'plash mumkin.

Har bir savolga javob to'g'ri va to'liq yoritilsa, fanga doir zamonaviy nazariyalarni bilishi, mustakil, anik fikrlar asosida muammolarga ijodiy yondashgan xolda yoritilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 21,5-25 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga to'g'ri javob yozilsa, fanni o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil haqida mushohada yuritsa, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olsa, lekin mehnat munosabatlariga oid tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olmasa o'zlashtirish ko'rsatkichi 21-18 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga asosan to'g'ri javob yozilsa, biroq qo'yilgan masalaning mohiyati, mazmuni, natijalari yuzaki yoritilsa, fikr-mushoxada bayonida tarkoklik kuzatilsa, o'zlashtirish kursatkichi 17,5-14 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga javoblar noto'g'ri yozilsa, o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirilgan bo'lsa yoki savollarga, umuman, javob yozilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-13,5 ball oralig'ida baholanadi.

№	Umumiy ball	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi	Xususiy ball
1	21,5-25	A'lo (90-100)	Talaba mavzu yuzasidan xulosa va qaror qabul qila oladi: ijodiy fikrlay oladi; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarni amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish ko'nikmalari yozma ishda mavjud Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar qilangan. Imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan.	8-8,5 7-7,5 5-6,5 1,5-2,5
2	18-21	Yaxshi (70-89)	Javob to'g'ri yozilgan, unda ixtisoslik fani bo'yicha bilimlar ilmiy yoritishga harakat qilinadi, ammo muloqot jarayonlarining funksional diskurs xususiyatlari ifodalanmagan yoki chalkashliklarga yo'l qo'yilgan. Javobda talabaning mustaqil mushohada yuritish qobiliyati qisman seziladi. Ijodiy yondashuv mavjud. Talaba muammoni taxlil qilish qobiliyati ega.	6-7 5,5-6 3,5-4 3-4
3	14-17,5	Qoniqarli (60-69)	Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan. Fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatiladi. Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan. Tasavvurga ega, lekin tahlil yetarli emas.	5-6 4-4,5 3-4 2-3
4	0-13,5 gacha	Qoniqarsiz (0-59)	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas. Umuman javob yozilmagan. Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan. O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan.	0-13,5

### 3. ASOSIY NAZARIY QISM

#### “YOZMA TARJIMA” fani

##### Tarjima konsepsiyasi

Tarjima konsepsiyasi haqida umumiy ma'lumot. Yozma nima. Yozma tarjimaning qisqacha tarixi haqida ma'lumot. Tarjima turlari. Yozma va og'zaki tarjima hamda ular o'rtasidagi o'xshashlik va farq qiluvchi jihatlari.

##### Tarjima turlari

Tarjima usullari. Yozma tarjima va uning leksik-semantik xususiyatlari. Tarjima ko'pqirrali fan sifatida. Tarjimaning kognitiv jarayoni. Tarjima usullari. Yozma tarjima transformatsiyalari.

##### Yozma tarjimada leksik-semantik transformatsiyalar

Yozma tarjimada leksik-semantik transformatsiyalar, yozma tarjima qilish usullarini, ona tilining xususiyatlarini va uslubiy jihatlari, so'zlanishni va tarjimaning turli texnikasini tarjima jarayonida qo'llash. Transkripsiya, transliteratsiya, kalka. Matnlar va mavzular tarjimasida ikki tildagi so'z, birikma, frazeologik birikmalar, maqol va matallar kabi birliklarni to'g'ri va aniq tarjima qilish. Tarjimonning “Qalbaki do'stlari” va tarjimada ularning xususiyatlari.

##### Antonimik tarjima

Antonimik tarjima tarjima jarayonida keng qo'llaniladigan kompleks leksik-grammatik almashtiruv. Tasdiq grammatik konstruktsiya inkor grammatik konstruktsiyaga, yoki aksincha, inkor konstruktsiya tasdiq konstruktsiyaga almashtirilishi. Asl matndagi biror so'z tarjima tilida uning antonimiga almashtirilishi.

##### Tarjimada tinish belgilarining ishlatilishi

Yozma tarjimada turli (nuqta, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, qo'shtirmoq, timoq, chiziqcha, tire, so'roq, undov va boshqa) tinish belgilarining ishlatilishi. Vergulning qo'llanmaslik holatlari. Tutuq belgisining qo'llanishi. Imlo qoidalari. Qo'sh unli va qo'sh undoshlarning qo'llanilishi. Boshqa yo'llar bilan ko'pligi yasaladigan otlarning qo'llanilishi.

##### Yozma tarjimada lug'at bilan ishlash

Yozma tarjimada lug'at bilan ishlash. Yozma nutq lug'at tarkibi, internatsional, psevdointernatsional, ko'p ma'noli so'zlar, neologizmlar tarjimasini. Atamalarining ekvivalentini aniqlash. So'zbirikmalar, frazeologik birikmalar tarjimasini. Bunda kundalik hayotini bildiruvchi, leksik terminlardan tashkil topgan qisqa epizodik lavhalar, kichik hajmdagi uchrashuv, so'zlashuv va shuningdek, qisqa hajmdagi ma'muriy va iqtisodiy matnlar tarjimasini.

##### Yozma tarjimada realiyalar, frazeologik birliklari ustida ishlash

Yozma tarjimaga xos so'zlar, realiyalar, frazeologik birliklar, maqol va matallarning chet tiliga o'girishdagi qiyinchiliklarini transformatsiyalar yordamida bartaraf etish.

##### Maqol va matallarning tarjima qilish usullari

Maqol va matallarning chet tiliga o'girishdagi qiyinchiliklarini transformatsiyalar yordamida bartaraf etish.

##### Yozma tarjimaning grammatik xususiyatlari

Yozma nutq lug'at tarkibi, grammatik qurilish va ularning o'rganilayotgan xorijiy va ona tilidagi o'ziga xos xususiyatlari. Yozma tarjimada qo'llaniladigan gaplar tuzilishi, punktuatsiya, matnning asl mazmuni ona tilida berilishi. Grammatik qurilish va ularning o'rganilayotgan xorijiy va ona tilidagi o'ziga xos xususiyatlari.

##### So'z ma'nolari va so'z birikmalari ustida ishlash

Tarjimada sodda va qo'shma gaplarning ekvivalentini har ikki tilda to'g'ri topish. Artikllar tarjimasini.

##### Fe'ning zamon formalarida gaplar tarjimasini

Xorijiy tilda fe'ning zamon formalarini, majhul nisbat, infinitiv, gerundiy, sifatdosh konstruktsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni to'g'ri tarjima qilish usullari.

##### Fe'l zamonlari, modal fe'llar, iboralar va predlogli birikmalar bilan ishlash

Xorijiy tilda fe'ning zamon formalarini, majhul nisbat, infinitiv, gerundiy, sifatdosh konstruktsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni to'g'ri tarjima qilish usullari.

##### Sodda yig'iq, sodda yoyiq va ergashgan qo'shma gaplarni tarjima qilish

Xorijiy tilda fe'ning mayl formalarini, majhul nisbat, infinitiv, gerundiy, sifatdosh konstruktsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni to'g'ri tarjima qilish usullari.

##### Turli janrlarga tegishli matnlar tarjimasini

Turli janrlarga tegishli matnlar tarjimasini. Turli janrlarga tegishli matnlarning uslubiy xususiyatlari va ularning funksional xususiyatlarini tarjimada saqlash yo'llari. Matn yozish qobiliyatini shakllantirish, yozma manbalardagi matnlar (konferensiya materiallari, mahsulotlar, oziq-ovqatlar, broshyuralar va boshqa manbalardagi yozuvlar bilan tanishish va ularni tarjima qilish).

##### Asosiy o'rganilayotgan chet tilidan o'zbek tiliga qisqa ertaklar tarjimasini

O'rganilayotgan xorijiy tildan o'zbek tiliga qisqa hikoya va ertaklarni tarjima qilish va tarjima usullari

##### Hikoyalar tarjimasini

Asosiy o'rganilayotgan chet tilidan o'zbek tiliga hikoyalarni tarjima qilish.

##### Rasmiy va norasmiy xatlar tarjimasini

Tarjima jarayonida uchraydigan rasmiy va norasmiy xatlarni tarjima qilish va ularda ishlatiladigan so'zva so'zbirikmalaridan foydalanish.

##### Gazeta matnlari tarjimasini

Radio va televideniadagi axborotlar, gazetalar sharhi, sport va madaniy voqealar tarjimasini. Gazeta va jurnallardagi maqolalarni tarjima qilish usullari. Turg'un birikmalar, idiomalar va maqol matallar tarjimasini.

##### She'riy tarjima usullari

Badiiy asarlarni tarjima qilishda matnning janr va uslubiy jihatlari, she'riy va nasriy xususiyatlarini hisobga olib badiiylik prinsipiga amal qilish. Badiiy matnlar (she'r va nasriy asarlar) tarjimasini. She'riy tarjima yozish usullari. Qisqa hikoyalarni yozma tarjima qilish usullari.

##### Publitsistik matnlar tarjimasini

Tilshunoslik va adabiyot (ilmiy adabiyot: qisqa hajmdagi ilmiy maqolalar, hikoya va romanlardan parchalar). San'at va madaniyat: san'at turlari, san'atga oid cholg'u asboblari, madaniy hayotni aks ettiruvchi turli mahalliy va xalqaro tadbirlar.

Sport: dunyoviy sport, sport turlari va ular bo'yicha o'tkaziladigan mahalliy va xalqaro tadbirlar, chempionatlar haqida matnlar tarjimasini.

##### Radio va televidenie matnlarini yozma tarjima qilish

Jurnalistika, radio va televidenie materiallari bilan tanishib borish ko'nikmalarini shakllantirish. Jurnalistika, radio va televidenie matnlarini yozma tarjima qilish. Ommaviy axborot soha matnlardagi terminlarning leksik va grammatik xususiyatlarini aniqlash.

##### Qisqartma va abbreviaturaga oid so'zlarni tarjima qilish

Qisqartmalar va ularning to'liq ma'nolari ustida ishlash. Abbreviatura turlari va ularni tarjima qilish usullari.

##### Siyosiy-ijtimoiy matnlarni yozma tarjima qilish

Siyosiy-ijtimoiy matnlarni yozma tarjima qilish. Siyosiy-ijtimoiy sohaga oid matnlardagi terminlarning leksik va grammatik xususiyatlarini aniqlash va taqdimot tayyorlash.

#### **Madaniyat va san'at sohasiga oid matnlarni yozma tarjima qilish**

Madaniyat va san'at sohasiga oid matnlarni chet tiliga, ona tiliga yozma tarjima qilish muammolari. Madaniyat va san'at terminlarini tarjima qilish xususiyatlari. Madaniyat va san'at sohasi hujjatlarni yozma tarjima qilish.

**Reklama va ijtimoiy munosabatlar sohasiga oid matnlarni yozma tarjima qilish**  
Reklama va ijtimoiy munosabatlar sohasi terminlari, iboralar yozma tarjimasi. Reklama va ijtimoiy munosabatlar sohasiga oid matnlar va hujjatlarni yozma tarjima qilish. Qisqartmalar, e'lon va reklamalar tarjimasi

#### **Yozma tarjimaning badiiy tarjima bilan uzviy bog'liqligi**

Yozma tarjima tahlil ko'nikmalari va malakalariga ega bo'lishga yo'naltirilgan mashqlar bajarish. Tili o'rganilayotgan mamlakatlarning badiiy adabiyoti namunalarini o'qish va mazmunini anglash, davriy matbuot nashrlarda bayon etilgan asosiy voqea-hodisalar haqida ma'lumotga ega bo'lish hamda mazmunini yozma bayon etishga o'rgatish.

#### **Turli sohalarga tegishli matnlarni yozma tarjima qilish**

Turli sohalarga tegishli matnlar yozma tarjimasi. Turli sohalarga tegishli atamalarning uslubiy xususiyatlari va ularning funksional xususiyatlarini tarjimada saqlash yo'llari. Turli sohalarga oid matnlardagi terminlarning leksik va grammatik xususiyatlarini aniqlash.

#### **Radio va televidenie matnlarini yozma tarjima qilish**

Jurnalistika, radio va televidenie materiallari bilan tanishib borish ko'nikmalarini shakllantirish. Jurnalistika, radio va televidenie matnlarini yozma tarjima qilish. Ommaviy axborot soha matnlardagi terminlarning leksik va grammatik xususiyatlarini aniqlash.

#### **Madaniyat va san'at sohasiga oid matnlarni yozma tarjima qilish**

Madaniyat va san'at sohasiga oid matnlarni chet tiliga, ona tiliga yozma tarjima qilish muammolari. Madaniyat va san'at terminlarini tarjima qilish xususiyatlari. Madaniyat va san'at sohasi xujjatlarni yozma tarjima qilish.

#### **Ekologiya sohasiga oid matnlarni yozma tarjima qilish**

Ekologiya va atrof muhit sohasi matnlari yozma tarjimasi. Ekologiya sohasiga oid matnlarni chet tiliga, ona tiliga yozma tarjima qilish muammolari. Ekologiya terminlarini tarjima qilish xususiyatlari. Leksik-grammatik transformatsiyalar.

#### **Badiiy tarjimaning lingvistik muammolari**

Badiiy tarjima. Badiiy tarjimaning lingvistik muammolari. Badiiy ifoda usullari, tarjima matniga talab darajasida uslubiy ishlov berilishini ta'minlash. Badiiy tarjimada til normalari. Asliyat matni va tarjima. Badiiy tarjimada tarjimon mahorati va uslubi.

#### **Badiiy tarjimada muqobilik va adekvatlik**

Badiiy tarjimada muqobilik va adekvatlik. Anonomik tarjima. Badiiy tarjimada o'rin almashirish, qo'shish va tushirib qoldirish hodisasi. Milliy kolorit va bo'yoqdorlikka ega so'zlar tarjimasi, milliy mentalitetni tarjimada berish, frazeologik birikmalar tarjimasi.

#### **Tarjimon uslubi, asl nusxa, muallifning uslubini tarjimada saqlash**

Tarjimon uslubi, asl nusxa, muallifning uslubini tarjimada saqlash. Til vositalaridan foydalanishda tarjimonning o'ziga xos yo'l tutishi va uslubi. Tarjima jarayonida asliyat matnining qismlariga mos va teng bo'lgan matn usullari. Asliyat qismlari tushunchasi. Aynan muvofiq keladigan tarjima qismlarini yaratish.

Tarjimada qo'llaniladigan turli leksik va grammatik transformatsiyalarga ehtiyojning mavjudligi. Asliyat va tarjima birliklari o'rtasida bevosita aloqa.

Birlamchi matn asosida transformatsiyalar foydalanib tarjima birliklarini saqlash. Tarjimashunos olim, mashhur tarjimashunos olim L. Barxudarovning "tadbil" haqidagi fikrlari. Asliyat matnini saqlash xodisasi. Matnning o'zgarishsiz qolishi va uning asosida o'zga tilda boshqa matn yaratilishi.

#### **Badiiy tarjima jarayonida amalga oshiriladigan tadbillar**

Badiiy tarjima jarayonida amalga oshiriladigan tadbillarning to'rtta turi 1) so'z o'rini o'zgartirish; 2) almashirish; 3) so'z qo'shish; 4) so'zni tushirib qoldirish. So'z o'rini o'zgartirishda asliyat matniga nisbatan tarjima matnida til unsurlari tartibining o'zgartirilishi. Almashirishda so'zshakli, nutq bo'laklari, gap bo'laklari, sintaktik bog'lanish turlarini o'z ichiga olgan grammatik va leksik birliklarning almashirilishi.

#### **Tarjimada milliy madaniy so'zlar**

Tarjimada milliy madaniy so'zlar, realiyalar, xos so'zlarning xususiyatlari. Tarjimada qo'llaniladigan turli leksik va grammatik transformatsiyalar. Frazeologik birliklarni tarjima qilish usullari.

#### **Xalq maqollari va turg'un iboralar**

Maqol va matallar tarjimasidagi muammolar. Tarjimada ekvivalentlikning ahamiyati. Tarjimaning frazeologik muammolari. Xalq maqollari va turg'un iboralar. Xalq og'zaki ijodi namunalarini tarjimasi, muammolar va yechimlar.

#### **Tarjimaning leksik va grammatik muammolari**

Tarjimaning leksik muammolari. O'rganilayotgan tilda topishmoqlarni tarjima qilish xususiyatlari. Leksik stilistik usullarning tarjimadagi talqini. Metafora va metonimiya lisoniy tarjimasining xususiyatlari.

#### **Ingliz, nemis, fransuz adabiyotini ona tiliga tarjima qilish muammolari**

Badiiy asarlarni tarjima qilishda tarjimon mahorati. Badiiy adabiyotni tarjima qilish, undagi grammatik qiyinchiliklar. Klassik asarlar tarjimasi xususiyatlari.

#### **Badiiy adabiyotni ona tilidan chet tiliga tarjima qilish**

O'zbek/Rus adiblari asarlarining Asosiy o'rganilayotgan chet tiliga tarjimasini tahlil qilish. A.Qodiriy "O'tgan kunlar", o'zbek/rus badiiy adabiyot asarlarini Asosiy o'rganilayotgan chet tiliga tarjima qilish, undagi grammatik qiyinchiliklar.

#### **Zamonaviy xorijiy adabiyot**

Zamonaviy xorijiy adabiyot tili va uning tarjimadagi xususiyatlari.

Zamonaviy xorijiy adabiyoti tarjimalarini tahlil qilish. Zamonaviy o'zbek/rus adabiyotini Asosiy o'rganilayotgan chet tiliga tarjima qilish muammolari.

#### **Noekivalent leksikani tarjima qilish xususiyatlari**

Noekivalent leksikani tarjima qilish xususiyatlari. Xalqaro leksika va uni tarjima qilish xususiyatlari. Neologizmlarning paydo bo'lishi va ularni tarjima qilish usullari. Internatsional so'zlar va tarjimada "soxta do'st" masalalari. Ilmiy matnlarda neologizmlar tarjimasi.

#### **Xalqaro tashkilotlar hujjatlarini yozma tarjima qilish**

Xalqaro tashkilotlar anjumanlarida sinxron tarjima qilish xususiyatlari. Halqaro tashkilotlar hujjatlarini yozma tarjima qilish. Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlarini yozma tarjima qilish.

#### **O'zbekiston Prezidenti, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi qarorlari, hujjatlarini yozma tarjima qilish**

O'zbekiston Prezidenti nutqlarning nashr qilingan variantini o'rganish, tahlil qilish. O'zbekiston Prezidentining BMT Assambleyasida so'zlagan nutqi tarjimasini tahlil

qilish. O'zbekiston Prezidentining bayram tabriklari nashr etilgan tarjimalarini tahlil qilish.

#### **Xalqaro huquq sohasi matnlar yozma tarjimasini**

Xalqaro huquq sohasi terminlari, iboralar va matnlar yozma tarjimasini. Xalqaro huquq sohasi matnlar yozma tarjimasini. Huquqshunoslik sohasi hujjatlarni yozma tarjima qilish.

#### **Jahon hamjamiyati tinchligi va xavfsizligi matnlar tarjimasini**

Jahon hamjamiyati tinchligi va xavfsizligi, O'zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan madaniy va iqtisodiy aloqalariga oid hujjatlar, terminlar tarjimasini.

#### **Rasmiy matnlar tarjimasini**

Rasmiy matnlar tarjimasini. Rasmiy matn yozish qobiliyatini shakllantirish, yozma manbalardagi. Biznes xatlarini chet tilida yozish va tarjima qilish.

#### **Publitsistik matnlar tarjimasini**

Tilshunoslik va adabiyot (ilmiy adabiyot: qisqa hajmdagi ilmiy maqolalar, hikoya va romanlardan parchalar). San'at va madaniyat: san'at turlari, san'atga oid cholg'u asboblari, adabiy hayotni aks ettiruvchi turli mahalliy va xalqaro tadbirlar. Sport: dunyoviy sport, sport turlari va ular bo'yicha o'tkaziladigan mahalliy va xalqaro tadbirlar, chempionatlar haqida matnlar tarjimasini.

#### **She'riy tarjima va tahlil**

Badiiy asarlarni tarjima qilishda matnning janri va uslubiy jihatlarni, she'riy va nasriy xususiyatlarini hisobga olib badiiylik prinsipiga amal qilish.

Badiiy matnlar (she'r va nasriy asarlar) tarjimasini. She'riy tarjima yozish usullari. Qisqa hikoyalarni yozma tarjima qilish usullari.

#### **Jahon adabiyoti namoyandalari asarlari tarjimasini**

Dunyoga mashhur yozuvchi va shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish.

#### **Dramatik asarlar tarjimasini va tahlilini**

Badiiy asarlarni tarjima qilishda matnning janri va uslubiy jihatlarni, she'riy va nasriy xususiyatlarini hisobga olib badiiylik prinsipiga amal qilish. Badiiy matnlar (she'r va nasriy asarlar) tarjimasini. She'riy tarjima yozish usullari. Qisqa hikoyalarni yozma tarjima qilish usullari.

#### **Sport sohasiga oid matnlarni yozma tarjima qilish**

Sport sohasi terminlari, iboralar va matnlar yozma tarjimasini. Sport sohasi matnlar yozma tarjimasini. Sport sohasi hujjatlarni yozma tarjima qilish.

#### **Turizm sohasiga oid matnlarni yozma tarjima qilish**

Turizm sohasiga oid matnlarni yozma tarjima qilish. Turizm sohasi terminlari, iboralar va matnlar yozma tarjimasini. O'zbekiston tarixiy obidalari, madaniy merosi va diqqatga sazovor turistik joylarni tasvirlovchi matnlarni yozma tarjima qilish. Xalqaro turizm: O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakat turizmi, turizm turlari, ko'rgazma va forumlar.

#### **Gastronomiya va kulinariya sohasiga oid matnlarni yozma tarjima qilish**

Gastronomiya va kulinariya sohasi terminlari, iboralar va matnlar yozma tarjimasini. Gastronomiya va kulinariya sohasi matnlarini, milliy taomlar, retseptlar, menyu va boshqa hujjatlarini yozma tarjima qilish.

#### **Reklama va ijtimoiy munosabatlar sohasiga oid matnlarni yozma tarjima qilish**

Reklama va ijtimoiy munosabatlar sohasi terminlari, iboralar yozma tarjimasini. Reklama va ijtimoiy munosabatlar sohasiga oid matnlar va hujjatlarni yozma tarjima qilish. Qisqartmalar, e'lon va reklamalar tarjimasini

## **TARJIMA NAZARIYASI fani**

### **"Tarjima nazariyasi" faniga kirish**

Tarjima tushunchasi. Tarjima faoliyatning mazmuni. Tarjima nazariyasining asosiy tushunchalari. Tarjima tushunchasiga berilgan turli ta'riflar. Tarjima nazariyasi va boshqa filologik fanlar o'rtasidagi bog'liqlik.

#### **Fanning predmeti, uslub va metodlari**

Tarjima nazariyasi fanining predmeti to'g'risida turlicha yondashuvlar. Tarjima nazariyasi fanining predmeti. Tarjima jarayonlari. Tarjimada qo'llanadigan usul va metodlar.

#### **Tarjima turlari**

Tarjimaning yozma va og'zaki (ketma-ket, sinxron) turlari. Yozma tarjimaning xususiyatlari. Og'zaki tarjimaning yozma tarjima o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar. Tarjimaning matn va uslubga ko'ra turlari. Gumanitar fan matnlari tarjimasini. Ilmiy-texnik matnlar tarjimasini. Badiiy tarjima.

#### **Tarjima birligi**

Tarjima va til birliklari. Tarjima birliklariga bo'lgan turlicha yondashuvlar. Tarjima birligini aniqlash mezonlari. Fonema, morfema, so'z, so'z birligi va gap tarjima birligi sifatida.

#### **Tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik**

Ekvivalentlik va adekvatlik xususiyatlari. Ekvivalentlik darajalari. Adekvatlik darajalari. Ekvivalentlikni aniqlash yo'llari. Adekvatlikka erishish yo'llari.

#### **Tarjima transformatsiyalari tushunchasi va ularning turlari**

Tarjima transformatsiyasi tushunchasi. Tarjima transformatsiya-larining turlari. Leksik, leksik-semantik, grammatik, leksik-grammatik tarjima transformatsiyalari. Tarjima transformatsiyalariga sabab bo'ladigan holatlar tasnifi.

#### **Ko'p ma'noli so'zlar tarjimasini**

Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni tarjima qilish usul va yo'llari. Milliy xususiyatga ega bo'lgan so'zlar (realiyalar) tarjimasida yuzaga keladigan muammolar. Realialarni tarjima qilish yo'llari.

#### **Internatsional va "tarjimolarni chalg'ituvchi" so'zlar tarjimasini**

Internatsional so'zlar va ularning turlari. Internatsional so'zlarni tarjima qilish yo'llari. "Tarjimolarni chalg'ituvchi" so'zlar tasnifi va ularni tarjima qilishda qo'llanadigan usullar.

#### **So'z birikmalarini tarjima qilish**

So'z birikmalari va ularning turlari. So'z birikmalarini tarjima qilish yo'llari. Erkin va turg'un so'z birikmalari va ularni tarjima qilishdagi farqlar.

#### **Gaplarni tarjima qilish**

Gap va ularning turlari. Gaplarni tarjima qilish muammolar. Gaplarni tarjima qilishda qo'llanadigan tarjima usul va metodlari. Gaplarni tarjima qilishda qo'llanadigan transpozitsiya usuli.

#### **Termin va terminologiya tarjimasini**

Terminlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning tarjimasini. Terminlarni tarjima qilishda qo'llanadigan usullar. Yangi terminlar tarjimasini muammosi.

#### **Tarjimaning stilistik muammolari**

Tarjimada soʻz qatlamlariga muqobil soʻz tanlash. Neytral, ogʻzaki va adabiy soʻz qatlami tushunchasi. Stilistik vositalar va stilistik usullar tarjimasi. Stilistik boʻyoqdor soʻzlar tarjimasi.

#### **Tarjima va matn**

Matn va matn birliklari va ularning tarjimada saqlanishi. Matn stilistikasi. Funktsional uslublar va ularning xususiyatlarini tarjimada saqlash yoʻllari. Nasriy va sheʼriy matn. Badiiy tarjima. Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasi. Ilmiy-texnik matnlar tarjimasi. Rasmiy hujjatlar matni tarjimasi.

#### **Tarjima va madaniyat**

Tarjima va madaniyat. Tarjimada madaniyatga oid muammolar. Tarjimadagi madaniy moslashish holatlari. Lingvokulturologiya. Dunyoning til manzarasi tushunchasi va milliy xususiyat.

#### **Tarjima va lugʻat**

Tarjimada lugʻatlarning oʻrni. Tarjima lugʻatlari va ulardan soʻz tanlash yoʻllari. Izohli va tarjima lugʻatlarining tarjimada muqobilikni taʼminlashdagi ahamiyati. Onlayn elektron lugʻatlardan tarjimada foydalanish va tarjima matni tahrir qilish.

### **SINXRON TARJIMA fani**

#### **Sinxron tarjima faniga kirish**

Tarjima turlari, sinxron tarjimaning xususiyatlari, sinxron tarjima tarixi, sinxron tarjima mashqlari, sinxron tarjima kabinalarida ishlash qoidalar, sinxron tarjima oʻrganish metodlari, eshitish va xotirada saqlash mashqlari, soʻzlarni tushirib qoldirish va tarjima, tarjimada ekvivalentlik.

#### **Tarjimada qoʻllaniladigan transformatsiyalar**

Sinxron tarjimada kompressiya hodisasi. Tarjimada qoʻllaniladigan turli leksik va grammatik transformatsiyalar. Tarjima metodlari sirasiga kiradigan mikroevyu, kompressiya, substitutsiya, transformatsiya hodisalari.

#### **Sinxron tarjima qilish prinsiplari**

Chet tilidan ona tiliga sinxron tarjima qilish prinsiplari. Ona tilidan chet tiliga sinxron tarjima qilish prinsiplari. Sinxron tarjimada gaplarni mantiqiy bogʻlash.

#### **Vizual tarjima sinxron tarjimaga oʻrgatish metodi sifatida**

Vizual tarjima metodlari, darhol tarjima qilish uslublari, yozma matni qisqa vaqt ichida ogʻzaki tarjima qilish, tarjima qilinayotgan tildagi soʻz va iboralarga ayni paytda ekvivalentlarini topish.

#### **Vizual tarjimaning texnik usullari**

Vizual tarjimaning texnik usullari, kompyuter ekranida yozilgan matnlarni vizual tarjima qilish. Katta ekranlardagi matn, titrlarni vizual tarjima qilish. Oziq-ovqat, isteʼmol maxsulotlari qadoqlaridagi yozma matnlarni vizual tarjima qilish.

#### **Turli sohalarga tegishli matnlarni vizual tarjima qilish**

Turli sohalarga tegishli matnlarni vizual tarjima qilish. Turizm, madaniy, tibbiy, siyosiy-ijtimoiy matnlarni vizual tarjima qilish. Turli sohalarga oid matnlardagi terminlarning leksik va grammatik xususiyatlarini aniqlash.

#### **Tarjima jarayonida xotirani rivojlantirish**

Sinxron tarjima xotirani rivojlantirish mashqlari. Mnemotexnik mashqlar. Sonlarni yodda olib qolish. Tarjima jarayonida xotirani rivojlantirish. Sinxron tarjima koʻnikma va malakalarini oshirishga yoʻnaltirilgan, xotirani mustahkamlaydigan turli mashqlar bajarish.

#### **Tarjimon sinxronistning nutqini oʻstirish**

Sinxron tarjimada koʻp soʻzli iboralarni kam soʻzli ibora va soʻzlar bilan almashtirish. Notiq nutqidagi asosiy semantik mazmunning tarjimasi. Soʻzlar birikishida taxminiy mazmuni aniqlash. Sinxron tarjimada leksik birliklarni toʻgʻri ishlatish, sintaktik bogʻlanish, kategoriyali semantik komponentlar, matnning asosiy mazmunini ifoda etuvchi soʻzlar va iboralar.

#### **Sinxron tarjimadagi kommunikativ vaziyat**

